

TARJIMADA EKVIVALENTLIK VA MUQOBILLIK

**Yuldasheva Kamola,
Toshkent to‘qimachilik va
yengil sanoat instituti
O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası
tayanch doktoranti
kyuldasheva248@gmail.com**

Annotatsiya: Maqolada tarjima sohasining asosiy elementlaridan biri bo‘lgan ekvivalentlik va muqobillik haqida so‘z yuritiladi. Bu ikki terminning orasidagi farqlar sharhlanadi va misollar bilan yoritiladi. Shuningdek, ekvivalentlik turlari, ya‘ni to‘liq, qisman va inklyuziya, undan tashqari boshqa olimlarning ham tasniflari berilgan. Tarjimaning sifatiga putur yetmagan holda ekvivalent tarjimani taqdim etishga oid usullar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: muqobillik, to‘liq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik, struktura, inklyuziya, sinxron tarjima, ekvivalentsizlik.

Turli madaniyatlar o‘rtasidagi asosiy ko‘prik bu tarjima hisoblanadi. Tarjima diplomatiyaning ham asosiy kaliti bo‘lib, barcha millatlarni har qanday sohada bog‘laydi, insoniyat sivilizatsiyasini tarjima sohasisiz tasavvur qilish qiyin. Tarjimaning muhim instrumentlaridan biri bo‘lib ekvivalent sanaladi va munosib ekvivalent topish murakkab jarayondir. Har qanday sohaga oid bo‘lgan tarjima asliyat bilan bir xil ravishda ma‘nosiga putur yetmagan holda komponentlarni saqlab qolishi, shu jumladan, mazmun, struktura, badiiy san‘atlar va iboralar yetkazilib berilishi kerak.

Tadqiqotchilar o‘rtasida ekvivalentlik va muqobillik borasida ma‘lum bahslar yuzaga kelgan va hozirda ham mavjud. Ayrim tarjimashunoslar bu ikki ibora bir xil hodisa, deb ta‘kidlasa, boshqalarning fikricha, muqobillik ekvivalentlikning tarjimasi, degan fikrda. Umuman olganda “ekvivalent” tenglik bo‘lib, birinchidan, ekvivalentlikda bir xillik umuman o‘xshamaslik nazarda tutilsa, ikkinchidan, ekvivalent almashtirishdir. Masalan:

Maybe there is some chemistry between us that doesn’t mix. – Insonlar tabiati turlichadir.

A rolling stone gathers no moss. – Daraxt bitta joyda ko‘karadi.

That’s a pretty thing to say. – Uyat! [3, 1].

Har uchala misolda so‘zma so‘z tarjima kuzatilmaydi, tarjimon iborani ibora bilan almashtirishi, agar buni iloji bo‘lmasa ekvivalentini keltirishi kerak, lekin so‘zma so‘z tarjima har doim ham to‘g‘ri kelavermaydi. Bundan tushunsa bo‘ladiki, tarjimaning asl maqsadi – o‘quvchi yoki tinglovchi uni asliyat bilan bir xilda qabul qilishidir. Sinxron tarjimada esa ketma-ket tarjimadan farqli ravishda ekvivalentlik qisman yo‘qolishi mumkin.

Ekvivalentlikning hozirda uch xil turi mavjud:

1. To‘liq ekvivalentlik – barcha parametrlar (leksik, semantik, stilistik) to‘liq saqlanib qoladi. O‘zbek tili bilan ingliz tili struktur jihatdan farqli bo‘lganligi bois tarjimadagi misol rus tilida keltirildi:

There might be some small pickings left, from those who would be willing to continue, and later it would be necessary to decide if they were worth while. Кое-что ему еще, наверно, останется - от тех, кто захочет продолжать дело. А дальше уже придется решать, стоит ли этим заниматься. [4, 6]

2. Qisman ekvivalentlik – ma’nosi yetkazib berilgan holda farqli jihatlar ham bo’ladi. Masalan:

Experience changed the ideas of this British officer. American airmen started the process of "brain-washing". He saw them machine-gun a road full of refugees. Britaniya askarining tajribasi uning o’y-xayollarini ostin-ustun qilib yubordi. Ayniqsa, Amerika uchuvchilari uni bir zumda “ulg’aytirib” qo’yidilar. U qochoqlar to’lda yo’lakning tinimsiz o’qqa tutilishining guvohi bo’ldi. [5, 229]

3. Inklyuziya – biror so’z yoki tushunchaning tarjima qilinayotgan tilga tushunchaviy ekvivalenti mavjud bo’lmaganda foydalaniladi. Bunda tarjimon keng qamrovli tushuntirishlar orqali tarjimani yetkazib beradi. Lekin bu metod tarjima qilinayotgan soha va uning terminologiyasida ma’lum darajada bilim talab qiladi [6, 1].

Ekvivalentlikni tuzilishi bo’yicha quyidagicha tasnif qila olamiz:

1. Bir butun gapdan bir nechta gaplar hosil qilgan holda:

A police Advisory Board composed of twelve representatives from police authorities, nine from the Federation, three representing superintendents, and eight representing Chief Officers with the Home Secretary or Home Office representative in the chair, has a general consultative and advisory function on police matters but the Home Secretary need not accept its advice. [7, 1]

Ushbu gap uchta alohida tushunchalarni beradi:

1) Konsultativ byuro tarkibi 2) Byuro faoliyatida vazirning o’rni 3) Byuroning huquq va majburiyatlari. Shunga ko’ra, gapning tarjimasi quyidagicha: *Politsiya Maslahat Markazi o’n ikki nafar politsiya organi vakili, to’qqiz nafar federatsiya vakili, uch nafar yuqori martabali politsiya xodimi va sakkiz nafar boshliqdan iborat. Bizning byuro politsiya bilan bog’liq masalalar bo’yicha umumiy maslahat vakolatiga ega, ammo Ichki ishlar vaziri uning ko’rsatmalarini bajarishga majbur emas.*

2. Yuqoridagi gapda bir butun murakkab gap bir nechta bo’laklarga bo’linib, uchta alohida gap hosil qilingan bo’lsa, ekvivalentlikning keyingi turida esa aksincha, bir nechta gap bir butun gapni hosil qiladi:

Despite all opposition these sections have organized a powerful trade-union movement. The mass of the Civil Servants have successfully established important political rights for themselves. Barcha qarshiliklarga qaramay, bu bo’limlar kuchli kasaba uyushma harakatini tashkil qildilar va davlat xizmatchilari ommasi o’zlari uchun muhim siyosiy huquqlarni muvaffaqiyatli o’rnatdilar.

3. Ba’zida gaplardagi struktur xilma-xillik grammatik va semantik jihatdan tarjimaga ta’sir o’tkazadi:

For five years Sandino conducted a heroic struggle in the jungles against the very much better equipped United States marines. Finally, unconquered, he agreed to a peace conference. Sandino besh yil davomida o’rmonlarda yuqori darajali AQSh dengiz kuchlariga qarshi qahramonona kurash olib bordi. Nihoyat, g’alaba qozona olmay, muzokaralarga rozi bo’ldi. [8, 1]

Ekvivalentlikning yana bir turi shuki, tarjimada sintaktik tuzilmalar, soʻzlarning tartibi va sintaktik butunlik bir vaqtda oʻzgarsa, bu murakkab sintaktik oʻzgarishlarga olib keladi:

And so, with sentinel in each dark street, and twinkling watch-fires on each height around, the night has worn away, and over this fair valley of old Thames has broken the morning of the great day that is to dose so big with the fate of ages yet unborn. (J.K. Jerome) [9, 75]

Tun boʻyi har bir qorongʻu koʻchada qoʻriqchilar turardi, shahar tashqarisidagi adirlarda ham qoʻriqlovchi gulxanlar yoqildi. Mana, tun ham oʻtdi va betakror Temza vodiysida dunyo yuzini koʻrmagan avlod uchun katta oʻzgarishlarga yetaklovchi buyuk kun tongi boshlandi.

Tarjima saviyasiga putur yetkizmagani holda uning asosiy maʼnosini berish bilan ham tarjimada ekvivalentlikka erishish mumkin. Shunday ekan, asliyat matni parchasi ustida ishlash jarayonida tarjimaning bir necha variantlari yuzaga keladi. Tarjimon uning eng muqobilini tanlay olishi muhim. Bunda tarjimon matnining alohida elementlarini muhimlik darajasiga koʻra grammatik va semantik toʻgʻri keladiganini tanlaydi. Eng kam yoʻqotishga ega tarjima variantini tanlash tarjima saviyasini belgilaydigan eng muhim omildir. Tarjimada ekvivalentlikka erishishda uning darajalarini eʼtirof etish juda muhim. Bu tilshunos va tarjimashunoslar tomonidan turlicha talqin etilgan. Tarjima tillararo muloqotning alohida turi sifatida asosiy eʼtiborni ikki til tizimining maʼno jihatiga qaratishni taqozo etadigan ijodiy jarayondir. Chunki axborotning toʻlaqlonliligi asosini turli tillar matnlarining maʼnoviy uygʻunligi tashkil etadi. Tarjimada har qanday tasvir vositalarining maʼnoviy muqobilligi jihatlarini toʻliq taʼminlash ham muloqot maqsadining vazifalaridan biri hisoblanadi [1, 142].

Darhaqiqat, ayniqsa tarjimaning sinxron turida yoʻqotishlarni chetlab oʻtishning deyarli iloji yoʻq. Shuning uchun ham tarjimani imkon qadar toʻliqroq yetkazib berishga harakat qilish zarur. Bunda yuqoridagi fikrga qoʻshimcha ravishda Grammatik, semantik va stilistik jihatga ham ahamiyat berish kerakligini taʼkidlash joiz. Masalan, **to be on cloud nine**, yaʼni “toʻqqizinchi osmonda boʻlmoq” iborasi oʻzbek tilining «yettinchi osmonda uchmoq» iborasiga maʼnoviy jihatdan muqobil deya olish mumkin. Bu yerdagi ibora uslubiyat jihatidan badiiy uslubga xos boʻlib, uni faqat shu uslub doirasida qoʻllash mumkin. Ammo, Grammatik nuqtai nazardan gaplar bir xil tuzilishga ega boʻlishiga ehtiyoj har doim ham mavjud emas. Masalan: **And so, with sentinel in each dark street, and twinkling watch-fires on each height around, the night has worn away, and over this fair valley of old Thames has broken the morning of the great day that is to dose so big with the fate of ages yet unborn. (J.K. Jerome)** Tun boʻyi har bir qorongʻu koʻchada qoʻriqchilar turardi, shahar tashqarisidagi adirlarda ham qoʻriqlovchi gulxanlar yoqildi. Mana, tun ham oʻtdi va betakror Temza vodiysida dunyo yuzini koʻrmagan avlod uchun katta oʻzgarishlarga yetaklovchi buyuk kun tongi boshlandi. Ushbu misolda koʻrinib turibdiki, grammatik jihatdan turlicha koʻrinishga ega boʻlgan gaplar stilistik va semantik jihatdan toʻliq ekvivalent boʻla oladi.

Idioma va metaforalarni tarjima qilish muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki idiomalar va metaforalar madaniy jihatdan oʻziga xos elementlardir.

Qoidaga ko‘ra, tarjima paytida idiomalar ma‘nosi yaqin iboralar bilan almashtiriladi. Ammo ko‘pincha idioma tarjima qilinayotgan tilda "ekvivalenti" bo‘lmagan semantik yangilikdir. Shuning uchun ham tarjimon ba‘zan idiomaning "ekvivalentini" topa olmasligini tushunib, tarjima jarayonida o‘z idiomasini "yaratish" ga qaror qiladi. Boshqacha qilib aytganda, idioma va metaforalarni tarjima qilishda yuzaga keladigan asosiy muammo dilemmaga tushadi: ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish yoki muqobilini topishga harakat qilish. Serb tilshunosi Bogdan Popovich ushbu masalani ko‘rib chiqib, tarjima ekvivalentligining to‘rt turini aniqlaydi:

1) lingvistik ekvivalentlik – bu tarjima va tarjima qilinayotgan tildagi matnlarning bir xilligi bilan xarakterlanadi, ya‘ni so‘zma-so‘z tarjima.

2) Paradigmatik ekvivalentlik – grammatik elementlar ekvivalentligi

3) Stilistik (tarjima) ekvivalentligi bir xil ma‘noga ega bo‘lgan invariant orqali asl til va tarjima tilidagi elementlarining funksional ekvivalentligi.

4) Matniy (sintagmatik) ekvivalentlik – matnning sintagmatik tuzilishining ekvivalentligi, ya‘ni shaklning ekvivalentligi.

Amerikalik tarjima nazariyotchisi Eugene Nida rasmiy va dinamik ekvivalentlikni ajratadi [2, 24].

Rasmiy ekvivalentlik bilan "e‘tibor xabarning o‘ziga, uning shakli va mazmuniga qaratiladi. Bunday tarjimada jumla jumлага, tushuncha tushunchaga mos kelishi o‘ylantiradi. Naida ushbu tarjimini "interlinear" deb ataydi, uning maqsadi o‘quvchiga iloji boricha ko‘proq tarkibni tushunishga yordam berishdir.

Dinamik ekvivalentlik ekvivalent effekt prinsipiga asoslanadi, ya‘ni tarjima qilingan xabar va uni qabul qiluvchi o‘rtasidagi munosabatlar asl xabar va uni qabul qiluvchilar o‘rtasidagi munosabat bilan bir xil bo‘lishi kerak. Bunday yondashuvning misoli Rimliklarga oid kanonik ingliz tilidagi tarjimasi (16:16), bu yerda Havoriy Pavlusning "Give one another a hearty handshake all round" so‘zlari "Bir-biringiz bilan o‘pish bilan salomlashing" deb tarjima qilish mumkin.

Nemis tilshunosi Albert Noyber tarjima ekvivalentligi muammosiga yechim topishga urinar ekan, ekvivalentlikni sintaktik, semantik va pragmatik komponentlarni o‘z ichiga olgan semiotik kategoriya sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ta‘kidladi. Bu komponentlar ierarxik munosabatda bo‘lib, semantik ekvivalentlik sintaktik ekvivalentlikdan ancha muhimroqdir.

Rus rasmiy maktabi vakillari va Praga lingvistik to‘garagining a‘zolari bu haqida farqli nuqtai nazarga ega edilar. Badiiy matnlarning ekvivalentligi muammosini o‘rganuvchi ba‘zi zamonaviy tilshunoslar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanadi. Masalan, amerikalik tarjima nazariyotchisi Jeyms Xolms ekvivalentlik tushunchasini "noto‘g‘ri" deb hisoblaydi, chunki "tarjimaning o‘ziga xosligini talab qilish juda ko‘p narsani talab qilishdir". Mashhur slovak adabiyotshunosi Dioniz Durishining fikricha, badiiy matn tarjimoni tilning ekvivalentligi haqida emas, balki muayyan madaniy-zamonaviy kontekstda qo‘llaniladigan badiiy usullar haqida qayg‘urishi kerak. Tarjima ekvivalentligiga kelsak, Durishining fikriga ko‘ra, hatto bir xil manba matnining ikki xil tarjimasi ham bir xil bo‘lishi mumkin emas, manba va tarjima matnining o‘ziga xosligi haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Ekvivalentsiz leksika – bu tarjima orqali ma’no chiqarib bo’lmaydigan soʻzlardir. Ularning boshqa 231 tilda barqaror yozishmalari mavjud emas, ular boshqa tillarda semantik muqobilga ega emas; Ular mazmunini hech qanday chet tilidagi leksik tushunchalar bilan taqqoslab bo’lmaydigan soʻzlardir. Ekvivalentsizlik sabablari xalq hayotida biror mavzu, hodisaning yoʻqligi, tarjima tilida mos tushunchaning yoʻqligi, shuningdek, leksik va semantik xususiyatlarning farqlanishidir. Ekvivalentsiz leksikani yetkazishning turli usullarini qoʻllash chastotasiga koʻra, quyidagi usullardan foydalaniladi: giponimik tarjima (40%), undan keyin voqelikni qoldirib ketish (26%), izohli transkripsiya (22%) va yarim kalkalash (12%). Har bir tarjima usulining oʻziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor, shuning uchun madaniy belgilar birliklarini tarjima qilishning uygʻunlashgan usullaridan foydalanish kerak, masalan, transkripsiya va tavsifiy tarjima.

Прокофий раскидал шестерых казаков и, вломившись в горницу, сорвал со стены шашку. — *Prokofy flung off six Cossacks, burst into the gornitsa (living room) and grabbed the shashka (Cossack's sword).* – *Prokofiy olti kazakni uloqtirib tashladi, gornitsaga (yashash xonasiga) kirib, devordan shashkani (Kossak qilichini) sugʻurib oldi.*

Shunday qilib, "Tinch Don" romanining bu tarjimasi adekvat hisoblanadi, ammo roman matni tarjimasida milliy va madaniy lazzatning qisman yoʻqolishiga olib keldigan ekvivalentsiz lugʻat mavjud.

Tarjimonning ogʻzaki va yozma faoliyatidagi asosiy qiyinchiliklardan biri terminologik lugʻatni tarjima qilishdir. Terminlarni determinatsiyalash, yaʼni ularning adabiy tilga tobora kirib borishi tendensiyasi tarjima jarayoniga ham taʼsir qilib, atamalarni yetkazish vazifasini yanada murakkablashtiradi. Anʼanaga koʻra, atamani tarjima qilishning eng toʻgʻri yoʻli toʻgʻridan-toʻgʻri terminologik ekvivalentini izlashdir. Biroq, atamalar yangi maʼno komponentlarini, jumladan stilistik va qiyosiy maʼnolarni oʻzida shakllantirgani uchun ham bir maʼnoni izlash har doim ham kerakli natijani bermaydi. Bundan tashqari, sinxron tarjimonning ish sharoitida qatʼiy vaqt cheklovlari, maʼlumot manbalariga kirishning amaliy imkonsizligi va koʻpincha tayyorlanish uchun cheklangan vaqt tufayli tarjimaning bu usuli har doim ham adekvat boʻlmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Fatxutdinova I.A. Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. Volume 1 | Special issue 2.
2. Nida E. Towards a Science of Translating. Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Leiden, 1964.
3. <https://studizba.com/show/746564-1-71350-1.html>
4. https://inside.wku.edu.kz/index.php?option=com_docman&task=doc_view&gid=11830&tmpl=component&format=raw&Itemid=80&lang=en
5. <https://journals.eco-vector.com/2074-0530/article/view/67588/49501>
6. <https://belpaese2000.narod.ru/Trad/Komissar/kom03.htm>
7. <https://studizba.com/show/746562-2-71348-1.html>
8. <https://studfile.net/preview/8932702/page:6/>